



SOCIAL-ECOLOGICAL PROBLEMS OF LARGE CITIES IN UZBEKISTAN ON THE EXAMPLE OF TASHKENT CITY

Muhabbatkhan U. Abdullayeva

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: sustainable development, economy, ecology, environment, environmental management, environmental problems, measures.

Received: 12.12.22

Accepted: 14.12.22

Published: 16.12.22

Abstract: In the article, the main theoretical and practical issues of the implementation of the strategy for solving social and ecological problems, the existing problems, and the factors affecting their elimination are identified. The article is recommended for use by students, researchers, those interested in environmental activities and their management, and the general public.

O‘ZBEKISTONDA YIRIK SHAHARLARNING IJTIMOYIY - EKOLOGIK MUAMMOLARI TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA

Muhabbatxon U. Abdullayeva

Magistratura talabasi

O‘zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, iqtisodiyot, ekologiya, atrof muhit, ekologik menejment, ekologik muammolar, chora – tadbirlar.

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy - ekologik muammolarni yechish strategiyasini joriy etishning asosiy nazariy, amaliy masalalari, mavjud muammolari yoritilgan hamda ularni bartaraf etishga ta’sir qiluvchi omillar aniqlangan. Maqola talabalar, ilmiy xodimlar, ekologik faoliyat va uni boshqarishga qiziquvchilar hamda keng omma umum jamoatchilik foydalanishi uchun tavsiya etiladi.

СОЦИАЛЬНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ КРУПНЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ Г.ТАШКЕНТА

Муhabбатхан У. Абдуллаева

студент магистратуры

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: устойчивое развитие, экономика, окружающая среда, экологические проблемы, мероприятия.	Аннотация: В статье выявлены основные теоретические и практические вопросы реализации стратегии решения социальных и экологических проблем, существующие проблемы и факторы, влияющие на их устранение. Статья рекомендуется для использования студентами, научными работниками, интересующимися природоохранной деятельностью и управлением ею, а также широкой общественностью.
---	--

KIRISH

Bugun mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida – davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyotni liberallashtirish, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va kadrlar tayyorlash, madaniyat, tashqi siyosat, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish tizimi va boshqa sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Islohotlarning maqsadi adolatli jamiyat va demokratik davlat qurish, «inson manfaatlarini hamma narsadan ustun» tamoyilini amalga oshirish ustuvor hisoblangan joyda fuqarolarning qulay atrof muhitga bo‘lgan huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. O‘tmishda atrof muhit, ekologiya holatiga e‘tiborsiz munosabatda bo‘lish, tabiiy resurslardan me‘yordan ortiq foydalanish va ekologik talablarga bepisand munosabatda bo‘lish Orol dengizi qurishi, cho‘llanish, yer va suv resurslarining tanazzuli, o‘simlik va hayvonot dunyosi genofondining yomonlashuvi, biologik xilmaxillikning qisqarishi, ko‘p miqdordagi sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo‘lishi kabi bir qator global va mintaqaviy ekologik muammolarni paydo bo‘lishiga olib keldi.

ASOSIY QISM

Ushbu muammolar iqlim o‘zgarishi sodir bo‘layotgan sharoitlarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo‘lib, zamonaviy O‘zbekiston uchun atrof muhitni muhofaza qilish va uni sog‘lomlashtirish masalalarini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Demak, mazkur sohadagi vazifalarning ko‘lami mamlakatda ekologik holatni yaxshilash va yuzaga kelgan muammolarni yaxlit holda hal etishda jamiyatning barcha kuch va sa‘y-harakatlarini mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish, atrof-muhitni muhofaza qilishga birlashtirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish zaruratini qo‘ymoqdaki, bu bevosita qonunlar va normativ hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Shu nuqtai – nazardan mamlakatimizda ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida ilg‘or xalqaro talablarga javob beradigan fundamental normativ-huquqiy

baza shakllantirildi. Mazkur sohada yangi qonunlar qabul qilindi va normativ hujjatlar tasdiqlandi.

Qonunchiligimizga asosan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish - bu davlat organlari, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik shaxslar va fuqarolarning tabiiy muhitni muhofaza qilish va tiklash, tabiiy resurslardan oqilona (barqaror) foydalanish va ularni ko'paytirish, ifloslanish, buzilish, zarar yetkazish, tugashi, yo'q qilish, xo'jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitiga vayron qilish va boshqa zararli ta'sirlar va uning oqibatlarini bartaraf etishni o'zida aks ettirishi ko'rsatib o'tilgan. Atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy masalalari qonunchilik hujjatlarida, shuningdek, tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik normalarida o'z aksini topgan. Xususan, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy asoslari tizimida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonunining ikkinchi bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari"ga bag'ishlangan bo'lib, unda XI bobning (Fuqarolarning burchlari) 50 va 55-moddalarida Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir ekanliklari va yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekanligi belgilab berilgan. Konstitutsiyada belgilangan mazkur asosiy qoidalar keyinchalik tarmoq qonunchiligini shakllantirishda muhim huquqiy zamin vazifasini o'tagan. Harakatdagi qonunlar ushbu normalar asosida qabul qilingan bo'lib, mazkur normalarni amalda tatbiq etilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'kidlash lozimki, ushbu konstitutsiyaviy normalar bevosita ekologiya huquqi, shu jumladan tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tashkil etish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqqan holda amaldagi boshqaruv qonunchiligida ham davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari o'z aksini topgan. Xususan, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi (02.09.1993 y.), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida" (12.12.2002 y.), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida" (12.12.2002 y.), yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida" (29.08.2003 y.) qonunlar shular jumlasidandir. Mazkur qonunlarda ushbu organlarning atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruvni amalga oshirishi bilan bog'liq faoliyatiga oid normalar mustahkamlangan. Shuningdek, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish amaldagi tabiatni muhofaza qilish qonunchiligida ham atroflicha tartibga solingan. "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi (03.07.1992 y.) qonunda ham davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarning sanitariya-epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini ta'minlashga doir

majburiyatlari (7-modda) belgilangan. Unga ko‘ra, davlat idoralari, mulkchilikning shakllaridan qat‘i nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslar: belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya normalari, qoidalari va gigiena normativlariga rioya etishlari; davlat sanitariya nazoratini amalga oshirayotgan idoralar, muassasalar, mansabdor shaxslarga ro‘y bergan avariyaalar, sanitariyaepidemiya, radiatsiya vaziyati to‘g‘risida haqqoniy va to‘la-to‘kis axborot berishlari shartligi ko‘rsatib o‘tilgan. 1993 yil 6 maydagi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunda ham Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi va nazorati tartibga solinadi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari (5-modda), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari (6-modda), mahalliy davlat hokimiyati organlarining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari (7-modda), suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi (8-modda) belgilangan. Unga ko‘ra, suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek suvdan foydalanishni bevosita yoki havza (hududiy) boshqarmalari orqali tartibga soluvchi maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi (er usti suvlari), O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi (er osti suvlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (er osti issiq suvlari va mineral suvlar) o‘z vakolatlari doirasida suvdan foydalanishni tartibga solish sohasida maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari hisoblanadi (8-modda). 1997 yil 26 dekabrda ((yangi tahriri) 21.09.2016 y.) “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasi ham o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yozilishicha, o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek maxsus vakolat berilgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi o‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasida maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organlaridir. 1997 yil 26 dekabrda ((yangi tahriri);19.09.2016 y) “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, 1999 yil 15 apreldagi “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonunlarda hayvonot dunyosi, o‘rmonlarni muhofaza qilish, qo‘riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko‘paytirish sohasidagi davlat boshqaruviga oid bo‘lib, unga

ko'ra, o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan foydalanish va ularni takroriy ko'paytirish sohasidagi amalga oshiriladigan vazifa va vakolatlar keltirib o'tilgan. 1996 yil 27 dekabrda "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunda atmosfera havosini muhofaza qilishga doir, 2002 yil 13 dekabrda "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonunda konchilik munosabatlari, foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarining davlat hisobini yuritish, yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish ishlarining davlat hisobini yuritish, foydali qazilma konlarining va foydali qazilma konlari aniqlanishi ehtimoli bo'lgan istiqbolli yer qa'ri uchastkalarining davlat reestri, foydali qazilma konlari, foydali qazilma belgilari va texnogen mineral hosilalar davlat kadastri, foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi, foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlash va geologik materiallarning davlat ekspertizasi, foydali qazilmalar zaxiralarini hisobdan chiqarish, yer qa'ri monitoringi kabi masalalar o'rin olgan. 1997 yildagi "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonun oxirgi marta 2007 yil 26 sentyabr kuni o'zgartirildi. Qonunda bir qator choralar, jumladan, standart va ko'rsatkichlar kiritish, energiya samaradorligi nazoratini olib borish, energiya ihatdan samarali jarayonlarni rivojlantirish va energiya jihatdan samarador mahsulot ishlab chiqarish va yuqori samarali loyihalarni namoyish qilish zonalarni barpo etish orqali energiyadan oqilona foydalanishni joriy etishga harakat qilindi. Shuningdek unda loyihalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yaratildi, mablag' esa turli davlat va xususiy manbalardan kelib tushishi kerak. Yangilanadigan energiya ishlab chiquvchi yoki chiqindi qayta ishlovchi energiya ishlab chiqarish jihozlari uchun ushbu maqsadlarga jalb qilingan sarmoya investitsiyalariga nisbatan tezlashtirilgan amortizatsiya stavkalari qo'llanishiga yo'l qo'yiladi. Qonunda elektr energiyasidan samarali foydalanishni rag'batlantirish chorasini sifatida mavsumiy va kun davomidagi tariflarni qo'llash imkoniyati joriy etilgan (8-bob). 1998 yildagi Yer kodeksida yerning barcha toifalari uchun asosiy va qamrovli qoidalar joriy etilgan. Kodeksda turdosh huquqlar ko'rsatilgan, ularga ega bo'lish jarayonlari joriy etilgan va ularni tugatish uchun huquqiy asoslar ta'riflangan. Yer davlat mulki bo'lib u xususiy mulk bo'la olmaydi (7bob). Vazirlar Mahkamasining 2005 yildagi O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi huzuridagi davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi to'g'risidagi, yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati to'g'risidagi, davlat kadastrlari yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida inspeksiya, davlat nazorati va davlat kadastrining yagona tizimi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlangan edi. O'zbekiston Respublikasining "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunida (31.08.2000 y.) ham atrof muhitni himoya qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza qilish masalalari qamrab olingan. Xususan, ushbu qonunda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini tartibga solish masalasi belgilangan. Unga muvofiq, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash

sohasini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda u vakolat bergan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilardan iborat bo‘ladi: radiatsiyaviy xavfsizlikka doir talablarga rioya etilishini davlat tomonidan nazorat qilish va tekshirish; ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini ishlatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash; qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat mahsulotlarini, yemlarni, ichimlik va texnik suvlarni, qurilish materiallarini va ulardan tayyorlangan buyumlarni radiatsiyaviy ifloslanish jihatidan sertifikatlash; barcha turdagi qurilish uchun yer uchastkalari ajratilishi kelishib olinayotganda radiatsiyaviy ifloslanishni aniqlash. Qonuning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi nazorat o‘z aksini topgan. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi davlat nazoratini O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi amalga oshiradi. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta‘minlash sohasidagi ishlab chiqarish nazoratini ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchilar amalga oshiradi. Ekologik ekspertiza 2000-yil 25 mayda qabul qilingan va shu yilning 1-iyulidan kuchga kirgan «Ekologik ekspertiza to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni huquqiy-ekologik mexanizmni shakllantirishda va uni hayotga tatbiq etilishda katta hissa qo‘shdi. Ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonunning asosiy maqsadi va vazifalari - mo‘ljallanayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni rejalashtirish hamda amalga

oshirilishdan avval, ushbu faoliyatni ekologik talablar, xususan, fuqorolar sog‘lig‘iga qay darajada ta‘sir etishi mumkinligini aniqlash, shuningdek, atrof tabiiy muhitini muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning ekologik talablarga javob bera olishi yetarliligi va ilmiy asoslanganligini aniqlashdan iborat. 2001 yildagi “Madaniy meros ob’ektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risi” dagi Qonun avvalambor qo‘rilgan atrof-muhitning muhim elementlarini saqlash va ularni boshqarishga qaratilgan, ammo u tarixiy, arxeologik, estetik, etnologik yoki antropologik qiymatga ega hududlarni ham muhofaza qilishga, shuningdek tarixiy voqealar va shaxslar bilan bog‘liq tabiiy landshaftlarni muhofaza qilishga qaratilgan. 2002 yildagi Shaharsozlik kodeksida atrof-muhit, jamoatchilik qatnashuvi va axborot olish imkoniyatlariga tegishli qator muhim qoidalarni qamrab olingan. Shahar rejalashtirish qonunlari buzilgan hollarda, agar hayot muhitlari yomonlashgan yoki hayot, salomatligi yoki mulkiga zarar yetkazilgan bo‘lsa, mulkdorlar tovon talab qilishlari mumkin. Bu qoida binolar qo‘rilishi va buzilishi, shuningdek yerdan foydalanish hollariga tegishli. SHahar rejalashtiruvchilar qator omillar, jumladan, masalan, joyning tabiiy va texnogen ofatlar, kimyoviy va biologik ifloslanish xavfi ostida bo‘lishi, va madaniy merosni va muhofazalangan

tabiiy hududlarni asrab qolishni inobatga olishlari zarur. Fuqarolar atrof-muhit sharoiti va atrof-muhitni o'zgartirishi mumkin bo'lgan har qanday rejalar haqida to'la va o'z vaqtida axborot olish huquqiga egadirlar; shuningdek ular shahar rejalashtirish jarayonlarining muhokamasida qatnashish huquqiga egadirlar. 2007 yildagi "Favqulodda vaziyatlarni oldindan aytish va ularning oldini olish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" gi Qonunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen favqulodda holatlar zamiridagi sharoitlarga tayyor turish va ularni monitoring qilishga e'tibor qaratiladi. Unda ushbu maqsadlar uchun Bosh Vazir boshchiligidagi muvofiqlashtirish komissiyasi ta'sis etiladi. TMDQ mazkur komissiya a'zolaridan biridir. TMDQ Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda kimyoviy xavf tug'diradigan qurilmalarda avariylarning oldini olish uchun mas'uldir. 2002 yilda ikki muhim qonun: "Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida" qonun va "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Har ikkalasi barcha sohalarda qo'llanilishi mumkin. Axborot erkinligi tamoyillari va kafolatlari to'g'risida qonunga binoan axborot faqat qonun bilan shaxsiy huquq va erkinliklarni muhofaza qilish, axloqiy qadriyatlar tarkibini, madaniy va ilmiy salohiyat va milliy xavfsizlik sabablariga ko'ra cheklanishi mumkin. Ekologiya, meteorologiya, demografiya, sanitariya va epidemiologiya favqulodda holatlar va odamlar, odam aholi punktlari, sanoat korxonalar va kommunikatsiyalar xavfsizligiga tegishli boshqa axborot maxfiy bo'lishi mumkin emas. Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonunda fuqarolarning ma'muriy murojaatlar huquqi va ushbu jarayon uchun mavjud tartib-qoidalar ta'minlanadi (3-bob). Shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur sohaga taalluqli farmon va qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlashdagi islohotlarni samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 13 dekabrda «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi, 2004 yil 3 dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, 2013 yil 27 dekabrda "Ekologik nazorat to'g'risida"gi, 8.07.2020 yildagi "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida" gi, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni, "2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Suv

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "AydarArnasoy ko'llar tizimining biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda "yashil qoplamalar" - himoya o'rmonzorlari barpo etishni jadallashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi, "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan yerlarda daraxtlar va butalardan foydalanishni tartibga solish va ulardan foydalanish sohasida ruxsat berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "G'ildirakli yangi transport vositalarini ekologik sertifikatlash tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi, "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi, "Hisor davlat qo'riqxonasining qo'riqlanma zonasini belgilash choratadbirlari to'g'risida" gi, "Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida" gi, yildagi "Sement ishlab chiqarish tashkilotlari faoliyati ustidan ekologik nazoratni kuchaytirish to'g'risida" "Atrof muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi qarorlari shular jumlasidandir. 2016 yil 23 avgustdagi 273-son qaroriga asosida "2016 - 2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi" dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining quyidagi qaror loyihalari ishlab chiqildi va qabul qilindi: Yuqoridagilar bilan birgalikda, 2019 yilda O'zbekistonda 2030 yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Ekologik ta'limni rivojlantirish kontseptsiyalari qabul qilindi. O'sha yili 2019–2028 yillar davrida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish va 2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyalari ham tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunchiligini tahlil qilish atrof-muhitni muhofaza qilishning quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ajratib olishga imkon beradi: atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasida rejalashtirish; atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tartibga solish va standartlashtirish; atrof-muhitni litsenziyalash; atrof-muhit monitoringi; atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi buxgalteriya hisobi; atrof-muhitga ta'sirni baholash (EIA); atrof-muhitni baholash; atrof-muhitni sertifikatlash; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi nazorat; ekologik audit.

XULOSA

O‘rganish natijalaridan kelib chiqib, shuni ta’kidlash kerakki, yuqorida aytib o‘tilgan mexanizmlarning ba’zilari, allaqachon ta’kidlab o‘tilganidek, profilaktika funksiyasini bajaradi va atrof-muhit uchun xavfli hodisalar paydo bo‘lishining oldini olishga, shuningdek atrof-muhit va inson salomatligi uchun ekologik xavfli bo‘lgan joylarni, ob’ektlarni va faoliyatni aniqlashga qaratilgan. (masalan, atrof-muhit monitoringi, EIA, ekologik ekspertiza). Boshqalari tartibga soluvchi, atrof-muhitga ta’sir qilish chegaralarini belgilaydigan, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanishning maxsus shartlari (atrofmuhitni muhofaza qilish sohasidagi tartibga solish, atrof-muhitga ta’sir bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash va boshqalar) hisoblanadi. Bundan tashqari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning bir qismi ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish bosqichida, ba’zilari esa ikkinchisini amalga oshirish bosqichida qo‘llaniladi.

Guvohi bo‘lganimizdek, atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasi amaldagi ekologik qonunchilik bilan tartibga solingan. Bularning barchasi o‘z navbatida atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solish masalalarining naqadar dolzarb ekanligidan, uning atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasidagi printsiplarni ta’minlash, ekologik qonunchilikka rioya etilishini kafolatlashdagi ahamiyati beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020
3. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020
4. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2020
5. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 02 sentyabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida” qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” qonuni
8. O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida” gi qonuni
9. O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 03 iulda “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi qonun
10. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni